TA’LIM VA YOSHLAR

Jo‘rayeva Nigora Nuriddinovna
Buxoro viloyati Peshku tuman
30-umumiy o’rta ta’lim maktabi o’qituvchisi

ANNOTATSIYA: Mamlakat kelajagi, jahon maktab o'quvchilari va zamonaviy, ko'p jihatdan potentsial o'qituvchi-murabbiylarga bog'liq. O‘quv-tarbiyaviy ishlar jarayonida o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, vaziyatni o‘zgartirishga, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etishga, amaliy mashg‘ulotlarda pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedia vositalaridan foydalanishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Bu o‘quvchilarda mustaqillik va erkin fikrlashni tarbiyalashdir, o'quv faoliyatini tahlil qilish, futbol bo'yicha kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini egallash ularni ichki ehtiyojga aylantirishni taqozo etadi. Davlat ta’lim standarti talablari bo‘yicha bilimlarni mustaqil o‘rganish vazifasi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

KALIT SO’ZLAR: Sifatli ta’lim, yosh avlod, tarbiya masalasi , darsning sifati, taraqqiyot strategiyasi.

Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo‘yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Mamlakatimizda ham o‘tgan besh yilda bu borada aniq va maqsadli ishlar qilindi. Hozir amalga oshirilgan ishlar haqida to‘xtalish niyatimiz yo‘q. Aksincha kelgusi yillarda yoshlar masalasi bilan bog‘liq qanday vazifalar belgilangani haqida qisqacha so‘z yuritmoqchimiz. Prezidentimiz 2021 yil noyabr oyida Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqida **“Navqiron yoshlarimizni, ayniqsa, qizlarimizni sog‘lom va yetuk etib tarbiyalash, ularning qobiliyat va iste’dodini ro‘yobga chiqarish, Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida kamol toptirish bundan buyon ham e’tiborimiz markazida bo‘ladi”** deya alohida ta’kidlagan edilar.

Buning amaliy isboti sifatida Yangi O’zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida yoshlar bilan ishlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, siyosiy, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, sifatli ta’lim olishini ta’mminlash, siyosiy jarayonlarga faol jalb qilish, yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish borasida hayotiy vazifalar belgilandi. Shuningdek, strategiyadan 2022 yilda yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish, yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o‘qishga yuborish ko‘lamini 2 baravarga oshirish, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilingan yoshlar ulushini 40 foizga yetkazish, imkoniyati cheklangan yoshlar uchun infratuzilma yaratish, turli millat yoshlari uchun qo‘shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag‘rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan maqsadlar o‘rin olgan.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xaqlaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan. O‘z navbatida, O‘zbekistondagi barcha o‘zgarishlarning negizi hisoblangan ta’lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Ayni vaqtda ta’lim, shu jumladan, ijtimoiy soha uchun xarajatlar miqdori davlat byudjeti xarajatlar umumiy qiymatining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etmoqda. Tabiiyki, har qanday

davlat ham bunday katta xarajatlarni ko‘tara olmaydi, ammo qanchalik og‘ir bo‘lmasin, buning uchun zarur mablag‘ va resusrlar izlab topilmoqda.

Ayniqsa, bugungi jadal rivojlanib borayotgan global davrda, har bir pedagog xodim yoshlarning ta’lim tarbiyasi, kiyinish madaniyati darslardagi ishtiroki, amaliy hamda nazariy mashg‘ulotlarda vaqtida qatnashishi, o‘g‘il-qizlarni o‘z ustilarida tinimsiz izlanishlar olib borishlari kabi masalalarga jiddiy ahamiyat qaratish zarur. Mamlakatimizda milliy ma’naviyatimizni yuksaltirish, ulug‘ ajdodlarimizning o‘lmas merosini o‘rganish hamda targ‘ib etish, uning mazmun-mohiyatini yoshlarimiz ongu shuuriga singdirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Alisher Navoiyning ijodiy merosi nafaqat xalqimizning, balki insoniyatning bebaho ma’naviy xazinasidir. Buyuk mutafakkirning serqirra ijodi asrlar mobaynida insoniyatni hamjihatlikka, ilm-ma’rifatga chorlab, xalqimiz uchun cheksiz faxr-iftixor timsoli bo‘lib kelmoqda. Qolaversa, yana boshqa buyuk allomalarimiz, mutafakkirlarimiz, millatimizning ziyolilari ham jamiyat rivoji, mamlakat farovonligi, tinchligi va xotirjamligini yoshlar tarbiyasi bilan bog‘laganlar. Bu bejiz emas. Tarbiya masalasi ta’lim, milliy qadriyat, an’analar, mentalitet bilan uzviy bog‘liqlikda hal etilsa, rivojlanish hamda taraqqiyot bo‘ladi.

Ta’lim berishda asosiy e’tiborni darsning sifati hamda samaradorligiga qaratishi, talabada fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirib, rivojlantirishda bor mahoratini ishga solishi lozim. Ularning asosiy maqsadi o‘z sohasining malakali kadrlarini tayyorlash, yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib berish va talabalarning iste’dodlarini qo‘llab-quvvatlashdan iborat bo‘lishi darkor. Institutning mas’ullari vatan oldidagi burchini dildan his qilib, kasbiga fidoyilik ko‘rsatgan holda har bir magistrga, talabaga o‘z farzandidek munosabatda bo‘lishi, ularga mehr ko‘rsatishi, har tomonlama qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim tizimining asosiy ko‘rsatkichlari statistikas
2. O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim statistikasi.Nashr etilgan: 21/07/2017
3. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. Toshkent2006.
4. S.S.G‘ulomov, SH.A.Ayupov, A.X.Abdull Ta‘lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishdagi strategik va ustuvor yo‘nalishlar// Ta‘lim va tarbiya 1-2, 2003.
5. O.X.To‘raqulov. Zamonaviy kompyuter tarmoqlari bo‘yicha multimediyali elektron o‘quv-qo‘llanmalar yaratish texnologiyasi.// Uzluksizta‘lim 2006, №4
6. www.stat.uz - O‘zR davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti
7. www.gov.uz- O‘zR davlat xokimiyati portali
8. www.norma.uz.- Axborot huquqiy qidiruv tizimi